

Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi


2026- yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-iyul holatiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasida 2 984 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 917 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 30,7 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 325 tasi (10,9 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 277 tasi (9,3 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 253 tasi (8,5 %) kiyim ishlab chiqarishga va 204 tasi (6,8 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- iyul holatiga ko'ra



II. Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari shahar va tumanlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalari tomonidan 14950,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,5 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14 950,5	107,5
Nukus sh.	4 458,0	106,7
Amudaryo tumani	821,8	106,5
Beruniy tumani	530,9	105,8
Bo'zatov tumani	32,7	112,1
Qorao'zak tumani	563,5	109,3
Kegeyli tumani	215,1	108,2
Qo'ng'iro't tumani	873,9	107,8
Qanliko'l tumani	356,0	108,6
Mo'ynoq tumani	272,9	94,9
Nukus tumani	369,3	144,8
Taxiatosh tumani	2 084,8	108,3
Taxtakopir tumani	255,4	124,8
To'rtko'l tumani	516,8	110,4
Xo'jayli tumani	382,8	112,3
Chimboy tumani	336,9	114,7
Shumanay tumani	128,1	108,4
Ellikqal'a tumani	424,1	109,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (12 720,6 ming so'm), Taxiatosh tumanida (26 780,0 ming so'm), Qorao'zak tumanida (10 293,4 ming so'm), o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (7 267,0 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Nukus tumanida (142,4 %), Taxtako'pir tumanida (124,7 %), Chimboy tumanida (114,3 %) qayd etilib respublika ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
Yanvar-iyun oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 12 080,3 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (80,8 %) ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 580,4 mlrd so'm (3,9 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 2 192,4 mlrd so'm (14,7 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 97,4 mlrd so'm (0,6 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026- yilning yanvar-iyun oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-iyun oylarida respublikada 788,7 tonna makaron (2025-yilning yanvar-iyun oylariga 58,1 % ga ko‘paygan), 481,2 mln kub metr tabiiy gaz (23,5 % ga ko‘paygan), 2049 tonna o‘simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (10,0 % ga ko‘paygan), 10,6 ming tonna paxta tolasi (9,5 % ga ko‘paygan), 23,6 ming tonna bug‘doy uni (4,8 % ga ko‘paygan), 115,7 ming tonna dinatriy karbonati (4,4 % ga ko‘paygan), 518,6 ming tonna portlandsement (1,0 % ga ko‘paygan), 6,5 ming tonna ip kalava (0,03 % ga kamaygan), 1385,7 ming litr aroq (7,2 % ga kamaygan), 2,5 ming tonna o‘simlik yog‘i (28,7 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-iyun *	2025 yil yanvar-iyun *	2026 yil yanvar-iyun
Portlandsement, tonna	444600,0	513357,7	518566,0
Paxta tolasi, tonna	22332,3	9643,0	10558,3
Tozalangan o‘simlik yog‘i, tonna	4928,8	3450,0	2461,0
Bug‘doy uni, tonna	29852,7	22526,0	23600,6
O‘simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar, tonna	3285	1863	2049
Aroq, ming l 100% li spirt	1597,6	1492,7	1385,7
Ip kalava, tonna	15216,0	6513,1	6511,1
Tabiiy gaz, mln kub m	467,5	389,8	481,2
Dinatriy karbonati, ming t	115,1	110,8	115,7
Makaron, tonna	815,2	498,8	788,7

**2024-2025 yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan.*


Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,4 % (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 36,6 % (2025- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2025-yilning yanvar-iyun oyida 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 35,7 % ni (33,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 10,4 % ni (10,2 %), quyi texnologiyali 53,8 % (56,3 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-iyun oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 100,5 % ni, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish esa 83,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-iyun *	2025 yil yanvar-iyun *	2026 yil yanvar-iyun
Elektrenergia, mln.kvt.s	2734,9	2271,2	2281,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	26,7	20,4	16,9
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	92313,7	92313,7	100423,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 72,2 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 61,6 % ga, shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlarda 39,7 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-iyun *	2025 yil yanvar-iyun*	2026 yil yanvar-iyun
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	4323,1	4688,6	8074,2
Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	6247,3	7122,4	9947,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha	37391,3	41008,4	66264,2

xizmatlar, mln so‘m

**2024-2025 yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan.*

V. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste‘moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog‘i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo‘yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni mahsulot turlari bo‘yicha shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O‘zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish bo‘yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo‘yicha statistika ma‘lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma‘lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma‘lumotlari; e) uy xo‘jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo‘yicha ta‘rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko‘rinishdagi dinamikasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o‘zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig‘ma indeksi, bazis yilning qo‘shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo‘yicha indeks ko‘rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo‘lib quyidagilardan iborat:

B - Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash



**E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish**

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Kurbanova
61 222-75-87 (9510)

Manzil:
230103, Nukus,
A. Dosnazarov kóshesi, 97 a-úy
Pochta: info@qrstat.uz
Tel.: +998 (61) 222-22-45
